
№5 2026

ISSN: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



№5 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT VA EKSPERT KENGASHI

Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Yelena Yevgeyevna – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina Natalya Yuryevna– psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva Barno Sayfutdinovna – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova Gulsanam Ne’matovna – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov Bahodir Baxshullayevich – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova Oksana Gennadevna– pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Akramova Gulbahor Renatovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev Muxiddin Muxammatovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova Nurjahon Zuxuriddinovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov Xazrat Xusenovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov Mirmuhsin Rustamovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva Guldona Mamajonovna – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori, professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
G‘ayipova Nargiza Anorbayevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova Dilafruz Bozorovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Yelena Gennadiyevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Жексенбаева Гульнур – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Kudratova Lola Ravshanovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jalilov Nodirjon Azamatovich – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vaxobov Anvar Abdusattor o‘g‘li – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova Mehriniso Musinovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich - filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xalilova Ruxsora Raupovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Shoxruz Faxriddin o‘g‘li – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova Feruza Xayatovna – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

Texnik muharrir
Salimova Aziza Zoyirovna

Ingliz tili muharriri
Abduraximov Doniyor Abdusaid o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР
Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

РЕДАКЦИОННО-ЭКСПЕРТНЫЙ СОВЕТ
Реджеп Узюрек – доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Елена Евгеньевна – доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Наталья Юрьевна – кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Барно Сайфутдиновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Гульсанам Неъматовна – доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Баходир Бахшуллаевич – доктор педагогических наук, профессор
Филиппова Оксана Геннадьевна – доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Абдазимов Азизжан Абдусабирович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Мирзаева Фарохат Одилжоновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Акрамова Гульбахор Ренатовна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев Мухиддин Мухамматович – доктор психологических наук (DSc), доцент
Абдуллаева Дилбар Убайдуллаевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Нуржахон Зухуриддиновна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Фарфиева Камола Адхамджановна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Наргис Батировна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Жабборов Хазрат Хусенович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов Мирмухсин Рустамович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева Саодат Меликузиевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева Мавлюда Ибрагимовна – доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов Зубайдулло Изомович – доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбонбоев Азимбек Назирбой угли – доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Гулдона Мамажоновна – доктор исторических наук, профессор
Давлатова Саодат Тиловбердиевна – доктор исторических наук, профессор
Курбонова Манзила Бозоровна – кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Бехруз Собирович – доктор философских наук, профессор
Мираширова Наргиза Анваровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, профессор
Гайипова Наргиза Анорбаевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Дилафруз Бозоровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Елена Геннадьевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Жексенбаева Гульнур – доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Кудратова Лола Равшановна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич – доктор философии (PhD) по психологическим наукам
Жалилов Нодиржон Азаматович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов Анвар Абдусаттор угли – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова Мехринисо Мусиновна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Рахматуллаев Шарофиддин Нематуллаевич – доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Халилова Рухсора Рауповна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Шавкат Улугбекович – доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Шохруз Фахриддин угли – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Жонибек Шодиевич – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Феруза Хаятовна – кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

Технический редактор
Салимова Азиза Зойировна

Редактор английского языка
Абдурахимов Дониёр Абдусаид угли

EDITOR-IN-CHIEF
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL AND EXPERT BOARD
Rejep Uzyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Yelena Yevgeyevna– Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina Natalya Yuryevna – Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva Barno Sayfutdinovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Ibragimova Gulsanam Nematovna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov Bakhodir Bakhshullaevich – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova Oksana Gennadevna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich– Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Mirzaeva Faroxat Odiljonovna – Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Akramova Gulbahor Renatovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Bafaev Muxiddin Muxammatovich– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Abdullaeva Dilbar Ubaydullaevna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Ismoilova Nurjakhon Zukhuriddinovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Atabaeva Nargis Batirovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Jabborov Khazrat Khusenovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Akramov Mirmukhsin Rustamovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Qurbonboev Azimbek Nazirboy ugli – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Taniyeva Guldona Mamajonovna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev Bexruz Sobirovich – Doctor of Philosophical Sciences, Professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Professor
Gayipova Nargiza Anorbayevna– Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Botirova Dilafruz Bozorovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Alimova Yelena Gennadiyevna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Gulnur Zheksenbaeva – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology (Kazakhstan)
Kudratova Lola Ravshanovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Ismatulloev Abdullo Nasrulloevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology
Jalilov Nodirjon Azamatovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Vaxobov Anvar Abdusattor ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Raxmatova Mehriniso Musinovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology
Khalilova Rukhsora Raupovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – Doctor of Philosophy (PhD) in History, Associate Professor
Sharipov Shokhruz Fakhriddin ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in History
Butayev Jonibek Shodievich– Doctor of Philosophy (PhD) in History
Bobojonova Feruza Khayatovna – Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Responsible editor
Khayitov Khayotjon Khikmat ugli

Technical editor
Salimova Aziza Zoirovna

English language editor
Abduraximov Doniyor Abdusaid ugli

OG‘ISHGAN XULQLI O‘SMIRLAR BILAN ISHLASHDA MIKRO VA MAKRO MUHIT OMILLARI: MILLIY TARBIYA VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK NAZORAT TIZIMI

Jabborov Xazrat Xusenovich
TDSHU, AIFU universitetlarining professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot o‘smirlik davrida deviant (og‘ishgan) xulq-atvorning namoyon bo‘lishida mikro va makro ijtimoiy muhit omillarining ta’sir mexanizmlarini hamda milliy tarbiya va ijtimoiy-psixologik nazoratning o‘rnini ilmiy-nazariy va empirik jihatdan yoritishga bag‘ishlangan. Ishda o‘smirlar o‘rtasida huquqbuzarliklar va xulqiy og‘ishishlarni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-psixologik omillar bo‘yicha o‘tkazilgan maxsus empirik tadqiqot natijalari keltirilgan bo‘lib, ularning ilmiy-psixologik asoslari chuqur tahlil qilingan. Olingan empirik ma’lumotlarga tayangan holda, oila, mahalla va ta’lim muassasalarida profilaktik ta’sir ko‘rsatishning samarali mexanizmlari, milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy nazorat tizimini takomillashtirish yuzasidan profilaktik xususiyat kasb etuvchi amaliy tavsiyalar va asosli ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Deviant xulq-atvor, o‘smirlik davri, mikro muhit, makro muhit, milliy tarbiya, ijtimoiy-psixologik nazorat, empirik natijalar, profilaktika.

ФАКТОРЫ МИКРО- И МАКРОСРЕДЫ В РАБОТЕ С ПОДРОСТКАМИ С ОТКЛОНЯЮЩИМСЯ ПОВЕДЕНИЕМ: СИСТЕМА НАЦИОНАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ И СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО КОНТРОЛЯ

Аннотация: Данное исследование посвящено научно-теоретическому и эмпирическому освещению механизмов влияния факторов микро- и макросоциальной среды на проявление девиантного поведения в подростковом возрасте, а также роли национального воспитания и социально-психологического контроля. В работе приведены результаты специального эмпирического исследования социально-психологических факторов, вызывающих правонарушения и поведенческие девиации среди подростков, а также дан глубокий анализ их научно-психологических основ. На основе полученных эмпирических данных разработаны практические рекомендации и обоснованные научные выводы профилактического характера, направленные на совершенствование эффективных механизмов профилактического

воздействия в семье, махалле и образовательных учреждениях на основе системы воспитательного контроля, опирающейся на национальные ценности.

Ключевые слова: Девиантное поведение, подростковый возраст, микросреда, макросреда, национальное воспитание, социально-психологический контроль, эмпирические результаты, профилактика.

MICRO- AND MACRO-ENVIRONMENTAL FACTORS IN WORKING WITH ADOLESCENTS WITH DEVIANT BEHAVIOR: A SYSTEM OF NATIONAL UPBRINGING AND SOCIO-PSYCHOLOGICAL CONTROL

Abstract: This study is dedicated to illuminating the mechanisms of influence exerted by micro- and macro-social environment factors on the manifestation of deviant behavior during adolescence, as well as the role of national upbringing and socio-psychological control from both theoretical and empirical perspectives. The paper presents the results of a specialized empirical study on the socio-psychological factors triggering delinquency and behavioral deviations among adolescents, alongside an in-depth analysis of their scientific and psychological foundations. Grounded in the acquired empirical findings, practical recommendations of a preventive nature and well-founded scientific conclusions have been developed to enhance effective preventive mechanisms within families, communities (mahallas), and educational institutions through a system of educational control based on national values.

Keywords: Deviant behavior, adolescence, micro-environment, macro-environment, national upbringing, socio-psychological control, empirical results, prevention.

KIRISH

Bugungi kunda globolashuv jarayonlari, axborot oqimining keskin ortishi va zamonaviy raqamli muhitning shiddatli rivojlanishi yoshlar, xususan, o‘smirlar tarbiyasiga o‘zining ijobiy ta’siri bilan bir қатopda qator jiddiy ijtimoiy-psixologik muammolarni ham olib kelmoqda. Jamiyat taraqqiyotiga to‘siq bo‘luvchi salbiy holatlardan biri bo‘lgan o‘smirlardagi deviant (og‘ishgan) xulq-atvorning oldini olish va uni bartaraf etish bugungi kunda ilmiy-amaliy jihatdan eng dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

O‘smirlik davri shaxs kamolotida inqiroziy bosqich bo‘lib, bu davrda bolaning qadriyatlar tizimi, dunyoqarashi va ijtimoiy xulqi jadal shakllanadi. Biroq mikro ijtimoiy muhit (oila, mahalla, ta’lim muassasasi) va makro muhit (OAV, internet,

global axborot makoni) o‘rtasidagi nomutanosibliklar, milliy tarbiya tizimining uzluksizligi va ta’sirchanligining pasayishi o‘smirlar o‘rtasida o‘z-o‘zini yo‘qotish, qadriyatlar vakuumi hamda yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolish holatlarini keltirib chiqarmoqda[1].

An’anaviy milliy tarbiya va qadriyatlarning yoshlar ongiga yetarli darajada singdirilmagani, oiladagi tarbiyaviy jarayonlarning tizimsizligi hamda virtual olamning zo‘ravonlik va destruktiv elementlarga boy kontenti o‘smirlarda psixologik immunitetning zaiflashishiga olib keladi. Natijada huquqbuzarliklar, agressivlik, ijtimoiy moslashuvning buzilishi kabi deviant xulq shakllari ko‘zga tashlanmoqda[3].

Mazkur muammoning ilmiy-amaliy yechimi o‘smirlarda deviant xulq-atvorning kelib chiqish sabablarini mikro va makro ijtimoiy-psixologik omillar kesimida chuqur o‘rganishni, milliy tarbiya mexanizmlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishni hamda profilaktik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi. Shu boisdan ham, o‘smirlarda deviant xulq-atvorning oldini olishda milliy tarbiya omilining o‘rnini mikro va makro ijtimoiy-psixologik yondashuvlar asosida tadqiq etish bugungi kunda o‘ta muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi [2].

Biz mazkur maqolada o‘smirlarda deviant xulqni yuzaga kelishida mikro va makro ijtimoiy-psixologik omillar bo’yicha ijtimoiy-psixologik so’rovnoma o’tkazishni maqsad qildik. Shu bois tadqiqotimiz davomida **“O‘smirlarda deviant xulqni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash”** nomli ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma ishlab chiqdik.


So‘rovnoma savollarida o‘smirlarda deviant xulqni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar sifatida oilaviy muhit, tengdoshlar ta’siri, ta’lim muassasasidagi psixologik muhit, shaxsiy-emotsional holat hamda internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri kabi omillarni aniqlashga qaratildi.

So‘rovnoma anonim tarzda o‘tkazildi va ishtirokchilarga savollarga erkin hamda xolis javob berish imkoniyati yaratildi

Tadqiqot natijalari o‘smirlar orasida deviant xulq shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash hamda profilaktik tavsiyalar ishlab chiqishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“O‘smirlarda deviant xulqni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash” nomli ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma Toshkent shahridagi umumta’lim maktablarining 147 nafar 5–9-sinf o‘quvchilaridan o’tkazib quyidagicha empirik natijalarni qo‘lga kiritdik (1-rasmga qarang).




1-rasm. “Oilamda meni tushunishmaydi deb his qilaman” savoli bo’yicha empirik natijalar

Natijalarga ko‘ra, respondentlarning 43 foizi oilada o‘zini yetarli darajada tushunilmayotganini bildirgan. Bu ko‘rsatkich o‘smirlarning emotsional ehtiyojlari to‘liq qondirilmayotganini anglatadi. Psixologik jihatdan o‘smir uchun oiladagi emotsional yaqinlik, qo‘llab-quvvatlash va ishonch hissi juda muhim hisoblanadi. Ota-onalar tomonidan tushunmaslik, doimiy tanqid yoki e’tiborsizlik o‘smirda ichki norozilik, agressivlik va ijtimoiy begonalashuvni kuchaytiradi. Natijada o‘smir salbiy guruhlar ta’siriga tezroq tushib qolishi mumkin.

Mazkur holatlarning oldini olish uchun ota-onalar bilan psixologik treninglar tashkil etish, oilaviy muloqotni rivojlantirish, “ota-ona–farzand” munosabatlarini mustahkamlashga qaratilgan profilaktik suhbatlarni yo‘lga qo‘yish zarur.

Navbatdagi bosqichda biz respondentlarga **Ota-onam mening xatti-harakatlarimni yetarli darajada nazorat qilmaydi** degan savolni berdik va quyidagicha emperik natijalarni qo’lga kiritdik (2-rasmga qarang).

https://fanlararotadqiqotlar.uz/ ISSN: 3093-9240




2-Rasm. Ota-onam mening xatti-harakatlarimni yetarli darajada nazorat qilmaydi savoli bo'yicha empirik natijalar

Tadqiqotda 46 foiz o'smir ota-ona nazorati sust ekanligini qayd etgan. O'smirlik davrida nazorat va erkinlik o'rtasidagi muvozanat muhim hisoblanadi. Nazoratning haddan tashqari sustligi o'smirda mas'uliyatsizlik, qoidalarga bepisandlik va salbiy xulq-atvor shakllanishiga olib keladi. Psixologik jihatdan nazoratsiz qolgan o'smir o'z xatti-harakatlarini boshqarishda qiynaladi va tengdoshlar ta'siriga tez beriladi.

Bunday holatlarni kamaytirish uchun ota-onalarning pedagogik-psixologik savodxonligini oshirish, farzand bilan muntazam muloqot qilish, uning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda oilaviy nazoratni sog'lom shaklda olib borish tavsiya etiladi.

Respondentlarga **Do'stlarim ta'sirida o'zim istamagan ishlarni qilgan holatlarim bo'lgan** deb berilgan savol bo'yicha quyidagicha emperik natijalar qo'lga kiritildi (3-ramga qarang).




3-Rasm. Do'stlarim ta'sirida o'zim istamagan ishlarni qilgan holatlarim bo'lgan savoli bo'yicha empirik natijalar

https://fanlararotadqiqotlar.uz/ ISSN: 3093-9240

Respondentlarning 43 foizi tengdoshlar bosimi mavjudligini bildirgan. O‘smirlik davrida tengdoshlar guruhi shaxs rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. O‘smir o‘zini guruhga moslashtirish uchun ba’zan ichki qarashlariga zid ravishda salbiy xatti-harakatlarni amalga oshirishi mumkin. Bu esa deviant xulqning shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Mazkur muammoni bartaraf etish uchun maktablarda ijtimoiy moslashuv treninglari, liderlik va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish mashg‘ulotlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, o‘smirlarni sport, san’at va ijodiy to‘garaklarga jalb qilish foydali hisoblanadi.




4-Rasm. Maktab yoki kollejdagi psixologik muhit meni bezovta qiladi savoli bo‘yicha empirik natijalar

Navbatdagi bosqichda biz respondentlarga **Maktab yoki kollejdagi psixologik muhit meni bezovta qiladi** degan savolni berdik va quyidagicha emperik natijalarni qo’lga kiritdik (4-rasmga qarang).

Tahlillar o‘quv muassasasidagi salbiy psixologik muhit o‘smirlarning emotsional holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini aniqladi. O‘qituvchi va tengdoshlar bilan munosabatlarning yomonligi, kamsitilish yoki e’tiborsizlik o‘smirda maktabga nisbatan salbiy munosabatni shakllantiradi. Bu esa dars qoldirish, agressivlik va qoidabuzarlik holatlarining ortishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhit yaratish, maktab psixologlari faoliyatini kuchaytirish, bullying va diskriminatsiyaning oldini olish bo‘yicha profilaktik dasturlar ishlab chiqish zarur.

Navbatdagi bosqichda biz respondentlarga **Jahlimni nazorat qilish men uchun qiyin** degan savolni berdik va quyidagicha emperik natijalarni qo’lga kiritdik (5-rasmga qarang).




5-Rasm. Jahlimni nazorat qilish men uchun qiyin savoli bo’yicha empirik natijalar

Respondentlarning 43 foizida agressivlik va emotsional beqarorlik kuzatilgan. O‘smirlik davrida emotsional zo‘riqish kuchli bo‘lib, hissiyotlarni boshqarish mexanizmlari hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi. Jahldorlikning yuqori darajasi konfliktlarga moyillik, tajovuzkorlik va deviant xatti-harakatlarning ortishiga sabab bo‘ladi.

Bunday vaziyatlarda o‘smirlarga emotsional intellektni rivojlantirish mashg‘ulotlari, stressni boshqarish treninglari hamda psixologik konsultatsiyalar tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Navbatdagi bosqichda biz respondentlarga **O‘zimni ko‘pincha yolg‘iz va tushkun his qilaman** degan savolni berdik va quyidagicha emperik natijalarni qo’lga kiritdik (6-rasmga qarang).




6-Rasm. O‘zimni ko‘pincha yolg‘iz va tushkun his qilaman savoli bo’yicha empirik natijalar

Natijalarga ko‘ra, 39 foiz o‘smir yolg‘izlik va tushkunlik hissini boshdan kechirayotganini bildirgan. Psixologik jihatdan bu holat o‘ziga ishonchsizlik, depressiv kayfiyat va ijtimoiy moslashuv muammolariga olib keladi. Emotsional qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi deviant guruhlarga qo‘shilish xavfini oshiradi.

Muammoning oldini olish uchun o‘smirlarni jamoaviy faoliyatlarga keng jalb qilish, individual psixologik suhbatlar o‘tkazish hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish lozim.

Navbatdagi bosqichda biz respondentlarga **Internet yoki ijtimoiy tarmoqlardagi zo‘ravonlik sahnalari menga ta’sir qiladi** degan savolni berdik va quyidagicha emperik natijalarni qo’lga kiritdik (7-rasmga qarang).




7-Rasm. Internet yoki ijtimoiy tarmoqlardagi zo‘ravonlik sahnalari menga ta’sir qiladi savoli bo’yicha empirik natijalar

So‘rov natijalarida 50 foiz respondent internetdagi salbiy kontent ta’sirini his qilganini bildirgan. Virtual muhitdagi zo‘ravonlik, agressiya va destruktiv xatti-harakatlar o‘smir ongiga tez singadi. O‘smirlar ko‘pincha internetdagi obrazlarga taqlid qiladi va ularni real hayotga ko‘chiradi.

Shuning uchun media savodxonlikni rivojlantirish, internetdan xavfsiz foydalanish bo‘yicha treninglar o‘tkazish hamda ota-onalar tomonidan internet nazoratini kuchaytirish muhim hisoblanadi.

Navbatdagi bosqichda biz respondentlarga **Muammolarimni hal qilish uchun ba’zan qoidalarni buzishga tayyor bo‘laman** degan savolni berdik va quyidagicha emperik natijalarni qo’lga kiritdik (8-rasmga qarang).




8-Rasm. Muammolarimni hal qilish uchun ba’zan qoidalarni buzishga tayyor bo‘laman savoli bo’yicha empirik natijalar

Respondentlarning 39 foizi qoidabuzarlikka moyillik mavjudligini bildirgan. Bu holat o‘smirlarning ijtimoiy me’yorlarga nisbatan salbiy munosabat shakllanayotganini ko‘rsatadi. Psixologik jihatdan bu impulsivlik, mas’uliyatsizlik va ichki nazoratning sustligi bilan bog‘liq.

Profilaktika sifatida huquqiy savodxonlikni oshirish, mas’uliyat hissini shakllantirish hamda ijobiy motivatsiyani kuchaytirishga qaratilgan tarbiyaviy dasturlarni amalga oshirish zarur.

Navbatdagi bosqichda biz respondentlarga **Atrofdagilar tomonidan e’tiborsizlik yoki kamsitishni his qilaman** degan savolni berdik va quyidagicha emperik natijalarni qo’lga kiritdik (9-rasmga qarang).




9-Rasm. Atrofdagilar tomonidan e’tiborsizlik yoki kamsitishni his qilaman savoli bo’yicha empirik natijalar

38 foiz respondent o‘zini kamsitilgan yoki rad etilgan deb his qilishini bildirgan. Bunday holat o‘smirning o‘ziga bo‘lgan bahosini pasaytiradi va agressiv himoya reaksiyalarini yuzaga keltiradi. Ijtimoiy rad etilish hissi o‘smirni salbiy guruhlar tomon yetaklashi mumkin.

Shu bois ta’lim muassasalarida tolerantlik va o‘zaro hurmat muhitini shakllantirish, psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish muhimdir.

Navbatdagi bosqichda biz respondentlarga **Stress yoki muammolar sababli agressiv harakat qilgan paytlarim bo‘ladi** degan savolni berdik va quyidagicha emperik natijalarni qo’lga kiritdik (10-rasmga qarang).



10-Rasm. Stress yoki muammolar sababli agressiv harakat qilgan paytlarim bo‘ladi savoli bo‘yicha empirik natijalar

Natijalarda 44 foiz o‘smir stress ta’sirida agressiv xatti-harakatlar kuzatilishini qayd etgan. Bu esa stressga chidamlilik darajasi past ekanligini ko‘rsatadi. O‘smir stressli vaziyatlarda konstruktiv yechim topa olmagani sababli agressivlik orqali ichki zo‘riqishni chiqarishga harakat qiladi.

Mazkur muammoni kamaytirish uchun stressni boshqarish texnikalarini o‘rgatish, psixoprofilaktik mashg‘ulotlar o‘tkazish, sport va relaksatsion faoliyatlarni rivojlantirish tavsiya etiladi.

Demak tadqiqot empirik natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘smirlarda deviant xulqni yuzaga keltiruvchi asosiy ijtimoiy-psixologik omillar sifatida oilaviy muhitdagi muammolar, ota-ona nazoratining sustligi, tengdoshlar bosimi, maktabdagi salbiy psixologik muhit, emotsional beqarorlik, internet va ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta’siri, stress hamda ijtimoiy yolg‘izlik kabi omillar yuqori darajada namoyon bo‘lgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlik davrida shaxsning psixik rivojlanishi hali to‘liq barqarorlashmaganligi sababli ular tashqi ta’sirlarga juda sezgir bo‘ladi. Ayniqsa, emotsional qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi, ijtimoiy rad etilish hissi va salbiy guruhlar ta’siri o‘smirlarning agressiv, qoidabuzar yoki ijtimoiy me’yorlarga zid xatti-harakatlarni namoyon etishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, tadqiqot davomida internet va ijtimoiy tarmoqlardagi zo‘ravonlik kontentining o‘smirlar ruhiyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatayotgani, stress va hissiy zo‘riqishlarni boshqarish ko‘nikmalarining yetarli shakllanmagani aniqlandi. Bu esa o‘smirlarda impulsivlik, agressivlik va deviant xulq elementlarining kuchayishiga sabab bo‘lmoqda.

Biz mazkur masalada qo’lga kiritilgan empirik natijalarga asoslanib quyidagicha psixologik jihatdan amalga oshirilishi zarur bo‘lgan maqsadli va manzilli psixoprofilaktik ishlarni tavsiya qilamiz[4].

Oilaga yo‘naltirilgan psixoprofilaktik ishlar:

ota-onalar uchun “o‘smir psixologiyasi”, “oilada sog‘lom muloqot”, “farzand nazorati va erkinlik muvozanati” mavzularida seminar-treninglar tashkil etish;

ota-ona va farzand o‘rtasidagi emotsional yaqinlikni mustahkamlashga qaratilgan oilaviy psixologik suhbatlar o‘tkazish;

muammoli oilalarni individual psixologik kuzatuvga olish.

Maktab muhitiga qaratilgan ishlar:

ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish;

bullying va kamsitish holatlarining oldini olish bo‘yicha profilaktik dasturlar ishlab chiqish;

maktab psixologlari tomonidan xavf guruhiga kiruvchi o‘smirlar bilan muntazam korreksion mashg‘ulotlar olib borish.

O‘smirlarning shaxsiy-emotsional rivojlanishiga qaratilgan ishlar:

stressni boshqarish, emotsional intellekt va konfliktlarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirish treninglarini tashkil etish;

aggressivlik va impulsivlikni kamaytirishga qaratilgan psixokorreksion mashg‘ulotlar o‘tkazish;

o‘smirlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish va ijobiy “men” konsepsiyasini shakllantirish.

Tengdoshlar va ijtimoiy muhit bilan ishlash [5]:

ijobiy liderlik va jamoaviy faoliyatlarni rivojlantirish;

sport, san’at, kitobxonlik va ijodiy to‘garaklarga o‘smirlarni keng jalb qilish;

salbiy guruhlar ta’sirini kamaytirish maqsadida ijtimoiy moslashuv dasturlarini amalga oshirish.

Internet va media ta’siriga qarshi profilaktika:

media savodxonlik bo‘yicha treninglar tashkil etish;

internet xavfsizligi va virtual zo‘ravonlikning salbiy oqibatlari haqida tushuntirish ishlarini kuchaytirish;

ota-onalarga farzandlarning internet faoliyatini nazorat qilish bo‘yicha tavsiyalar berish.

Demak, o‘smirlarda deviant xulqning oldini olish faqat bitta muassasa yoki birgina psixolog faoliyati bilan cheklanmaydi. Bu jarayon oila, maktab, psixologik xizmat va ijtimoiy muhitning o‘zaro hamkorligini talab qiladi. Maqsadli va manzilli psixoprofilaktik ishlarni tizimli ravishda olib borish o‘smirlarning sog‘lom ijtimoiy moslashuvini ta’minlash hamda deviant xulq holatlarining kamayishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.M.Quronov. “Bolam baxtli bo‘lsin desangiz...” Toshkent «Ma'naviyat» 2013. 320 b.4.

2.Жабборов Хазрат Хусенович. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5.423.

3.Х.Х. Жабборов Влияние деструктивной «массовой культуры» на поведение и воспитание человека. ВЕСТНИК ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ. Научный журнал. 23 (№23), С.109-111

4.Х.Х. Жабборов Ёшларда таҳдидларга нисбатан мафкуравий иммунитет шакллантиришнинг таъсирчан психологик услублари. Таълим ва инновацион тадқиқотлар образование и инновационные. Халқаро илмий-методик журнал. Исследования education and innovative research № 5 2021/10 Б. 304-321

5.Жабборов Хазрат Хусенович. Психологические особенности идеологического влияния “массовой культуры” на человеческий разум. Социальный психолог журнал для психологов. Основан в 2000 году в Ярославль. 2016 №2 (32). -С. 56-66.

TA’LIM JARAYONIDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI: TIZIMLI TAHLIL VA STRATEGIK YONDASHUVLAR **Zamira Nishanova**	**6**
OG‘ISHGAN XULQLI O‘SMIRLAR BILAN ISHLASHDA MIKRO VA MAKRO MUHIT OMILLARI: MILLIY TARBIYA VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK NAZORAT TIZIMI **Jabborov Xazrat Xusenovich**	**12**
XOTIN-QIZLAR MUTAASSIBLIK HOLATINI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK SABABLARI **Akramov Mirmuxsin Rustamovich**	**24**
SHAXS INTELLEKTUAL RIVOJLANISHIGA PEDAGOGNING PSIXOLOGIK TA’SIRI **Ashurov Ramzidin Ramazonovich**	**34**
PEDAGOGLARDA KASBIY SO‘NISH JARAYONINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARINI O‘RGANISH NATIJALARI **Botirova Dilafro‘z Bozorovna**	**43**
OTA-ONA VA O‘SMIRLAR O‘RTASIDAGI O‘ZARO MUNOSABATLARNI GARMONIZATSIYALASHDA AFFILIATSIYA MOTIVATSIYASINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI **Samatova Sevara G‘ayratovna**	**50**
STRESSNI YENGIB O‘TISHDA MOTIVATSION VA IRODAVIY RESURSLARNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI **Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich**	**63**
NEVROZ TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK TALQINI **Abduraximov Doniyor**	**77**
BO‘LAJAK SPORT PSIXOLOGLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MOTIVATSION OMILLARNING AHAMIYATI **Rasulov Zokir Pardayevich**	**86**
UMUMTA’LIM MAKTABLARI TARIX DARSLARIDA IMMERSIV TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH **Rasuljon Atamuratov**	**93**

TALABALARIDA AXBOROTNI INTENSIV QABUL QILISH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURATI **Ergashev Bunyod Shokir o‘g‘li**	**100**
SIYOSIY NUTQNING O‘RNI VA AHAMIYATI **Xalilova Ruxsora Raupovna**	**110**
TALABALARNING SPEAKING KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISH **Rasulova Moxira Abdujalilovna**	**117**
BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI MILLATLARARO MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA TAYYORLASHNING DIAGNOSTIK MEZONLARI VA KO‘RSATKICHLARI **Atamuratov Dilshod**	**123**
USTOZDAN SHOGIRDGA: XALQ OG‘ZAKI IJODINING UZLUKSIZ AN’ANALARI **Karimova Muqaddas Abdisamatovna**	**131**
BUXORO AN’ANAVIY ME’MORCHILIGIDA TURAR-JOYLAR **Shamshod Karimov**	**139**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Jurnalda chop etilgan materiallardan to‘liq yoki qisman qayta foydalanilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** ilmiy-amaliy metodologik jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga taqdim etilgan materiallar qaytarilmaydi. Barcha ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan dastlabki ko‘rib chiqish, ilmiy ekspertiza va taqriz jarayonidan o‘tkaziladi. Jurnalning mavzu va ilmiy yo‘nalishlariga mos kelmagan, tahririyat tomonidan belgilangan talablar hamda nashr etish mezonlariga javob bermagan maqolalarni nashrga qabul qilmaslik huquqi tahririyatda saqlanadi.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-mayda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda 1564147-sonli guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan barcha maqolalar “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi hamda ilmiy ekspertiza va ikki tomonlama anonim taqriz (Double-Blind Peer Review) jarayonidan o‘tkaziladi. Jurnalda nashr etilgan materiallarning mazmuni, keltirilgan ma’lumotlar, ilmiy natijalar va foydalanilgan manbalarning ishonchliligi hamda to‘g‘riligiga muallif(lar) mas’ul hisoblanadi.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

***

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ nashriyotida nashrga tayyorlandi va jurnalning rasmiy veb-saytiga joylashtirildi
Tahririyat manzili: Toshkent shahri, Sergeli tumani, Yangi Bunyodobod MFY, 8-uy
Rasmiy veb-sayt: https://fanlararotadqiqotlar.uz/index.php/ft
E-mail: publisher@fanlararotadqiqotlar.uz